# BITTA MAVZUNI TURLI METODLARDA O‘RGANISH (6-SINF ADABIYOT FANI DARSLIGI ASOSIDA)

**Hamroyeva Nozigul G‘ayratovna**
Buxoro viloyati Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish
milliy markazi Metodik xizmat bo‘limiona tili va adabiyot fani metodisti,
Jondor tuman 42-umumta’lim fani o‘qituvchisi
E-mail: nozixamroyeva@gmail.com

## ANNOTATSIYA

Ushbu maqola barcha umumta’lim maktablari o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda yangi nashrda chop etilgan 6-sinf adabiyot darslidagi Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasi mavzusi 7 xil usulda tushuntirib berilgan. Bu metodlar asosida tashkillashtirilgan darslar o‘z maqsadiga erishadi.

**Kalit so‘zlar:** o‘g‘ri, Qobil bobo, tilmoch, dehqon, kampir, metodlar.

## АННОТАЦИЯ

Данная статья предназначена для учителей всех общеобразовательных школ, в которой в 7 различных вариантах раскрыта тема рассказа Абдуллы Каххора “Вор”, опубликованного в новом издании урока литературы для 6 класса. Занятия, организованные на основе этих методов, достигнут своей цели.

**Ключевые слова:** вор, Дедушка Кобил, переводчик, земледелец, старуха, методы.

## ABSTRACT

This article is intended for teachers of all secondary schools, in which the theme of the story “The Thief” by Abdulla Qahhor, published in the new edition of the 6th grade literature lesson, is explained in 7 different ways. Lessons organized on the basis of these methods will achieve their goal.

**Keywords:** thief, Grandfather Cain, translator, farmer, old woman, methods.



O‘zbek adabiyotining yorqin namoyandasi, “so‘z ustasi” Abdulla Qahhor o‘zining hikoyalari bilan o‘zbek o‘quvchilari qalbidan chuqur joy olgan joy olgan. Adib qahramonlari Siz va biz kabi oddiy insonlardir. U qahramonlarini tanishtirib o‘tirmaydi, portretini bermaydi, shunchaki nomlab qo‘yadi xolos.

Ammo voqealar so‘zlar orqali ularga shunday ifoda beradiki, voqealar rivoji davomida o‘quvchi qahramon haqida o‘z xulosasiga ega bo‘ladi.




Yangi nashrdagi 6-sinf adabiyot darsligida A.Qahhorning **“O‘g‘ri”** hikoyasi berilgan. Ushbu mavzuni o‘quvchiga to‘g‘ri yetkazish uchun bir necha usullardan foydalansa bo‘ladi. Bu usullar mavzuni yanada chuqurroq o‘rganishga asos bo‘ladi.



**1-usul:Test usuli**.

(Bu usul o‘quvchi olgan bilimini qo‘llay olish qobiliyatini shakllantiradi)

Rasmda tasvirlangan o‘zbek adabiyotining yorqin vakili kim va uning bolalik yillari hozirgi qaysi shaharda o‘tgan?

A) A.Qahhor.Farg‘ona viloyatining Qo‘qon shahri atrofidagi qishloqlarda

B) Odil Yoqubov.Buxoro viloyati Olot tumani qishloqlarida

C) A.Qahhor.Farg‘ona shahrida

D) M.Yusuf.Andijonning Marhamat tumanida

**2-usul: Rasmlar bilan ishlash usuli.**

**Qaysi rasm hikoya matniga mos tushadi.Qahramonlarni to‘g‘ri toping.**





**3-usul: Ranglarda ifodalang usuli.**

Bu usuldan ochiq darslarda, darsning mustahkamlash qismlarida foydalansa bo‘ladi. Zukko o‘quvchilar to‘g‘ri javobni topibgina qolmay, qaysi rang bilan belgilanganini ham topishi lozim. Bu esa ranglarni to‘g‘ri ajrata olish qobiliyatini shakllantiradi.




**4-usul: . “+ va –” metodi.**

Bu usul ham eng samarali usullardan bo‘lib, 4K modelining biri bo‘lgan “Kritik fikrlash” qobiliyatini shakllantiradi. O‘quvchi o‘z tasavvuridan kelib chiqib, qahramonga xarakteristika beradi.

| Asar qahramonlari | Qahramonning ijobiy xususiyatlari (+) | Qahramonning salbiy xususiyatlari (-) |
|---|---|---|
| Qobil bobo | | |
| Mingboshi | | |
| Pristav | | |
| Kampir | | |
| Amin | | |

**5-usul: “Interesting” usuli.**

**English and russian.**

Bu usulda o‘quvchi hikoya matnidan olingan kalit so‘zlarning inglizcha va ruscha tarjimasini topib yozishi lozim. Bu usul fanlar orasidagi integratsiya jarayonini ta’minlaydi. Bir darsda 5 ta so‘zning tarjimasini izlab topgan o‘quvchi xotirasida muhrlanib qoladi.

| Kalit so‘zlar | Ruscha tarjimasi | Inglizcha tarjimasi |
|---|---|---|
| O‘G‘RI | ВОР | THIEF |
| TILMOCH | | |
| HO‘KIZ | | |
| DEHQON | | |
| KAMPIR | | |

**6. “BIR DAQIQA” metodi (Guruhlarda ishlash uchun)**

**Bu usul ham ochiq darslarda qo‘llansa maqsadga muvofiq bo‘ladi. 1 daqiqa davomida guruh a’zolari bu savollarga yakdillik asosida javob berishlari lozim.**

**Bu ham o‘quvchida 4K modelining “Kollobaratsiya” turini shakllantirishiga**

1.Egamberdi paxtafurushning Qobil boboga qo‘ygan “kichkinagina” sharti nima bo‘lishi mumkin?

J:______________________________________________________________________

2.“O‘g‘ri” hikoyasiga “Otning o‘limi – itning bayrami” maqoli epigraf qilib tanlangan. Bu hikoyada sizningcha “ot” va “it” kim?

J:______________________________________________________________________

**7-usul: "PORTRET YOZAMIZ" usuli**

Hikoyadagi Qobil bobo xayolingizda qanday gavdalandi? Tasavvuringiz asosida portret yozing. (So'zlar orqali yoki rasm asosida ifodalang.)

Yuqorida ta'kidlaganimdek, adib qahramonga portret chizib o'tirmaydi. O'quvchi o'zida tasavvur paydo bo'ladi. Bu usulda o'sha tasavvur orqali o'quvchiga portret yozish topshirig'i beriladi. Bunday usullar uyga vazifa qilib berilsa,maqsadga muvofiq bo'ladi.




**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1.Adabiyot [Matn]: 6-sinf uchun darslik / Z. I. Mirzayeva, K. Q. Djalilov. – Toshkent: Res-
publika ta'lim markazi, 2022. – 224 b.
2. Internet ma'lumotlari.